

YOSHLARNI VATANPARVARLIK VA MILLIY QADRIYATLARGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHNING FALSAFIY OMILLARI

Normurodova Feruza Farhod qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Insitetuti Pedagogika fakulteti Ped 1/24 guruh talabasi

Adres:feruzanormurodova994@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning falsafiy omillari” mavzusiga bagʻishlangan boʻlib, unda yosh avlodni milliy oʻzlikni anglash, Vatanga muhabbat, ajdodlar merosiga hurmat va maʼnaviy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning falsafiy jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda vatanparvarlik tushunchasining falsafiy mohiyati, uning shaxs kamolotidagi oʻrni hamda milliy gʻoyaning tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: falsafiy; sadoqat; vatanparvarlik; qadriyat; muhabbat; ajdod; milliylik; avlod

Abstract: This article is devoted to the topic “Philosophical factors of educating young people in the spirit of patriotism and younger generation in the spirit of national identity, love for the Motherland, respect for the heritage of ancestors and devotion to spiritual values. The study highlights the philosophical essence of the concept of patriotism, its role in personal development, and the educational significance of the national idea.

Keywords: philosophical; loyalty; patriotism; value; love; ancestry; nationality; generation

Buyuk maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, “Har bir millatning saodati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bogʻliq.” Shunday ekan, har bir davlat xizmatchisi yoshlarning yaxshi tarbiyasiga, ularni komil inson boʻlib shakllanishiga oʻz hissasini qoʻshishi, milliy urf-odatlarimiz, anʼanalarimizni keng targʻib qilishda yoshlarning qonuniy talab va tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlashda shaxsiy namuna koʻrsatishi lozim.

Bugungi kunda yoshlarimiz maʼnaviyati, maʼnaviy tarbiyasi haqida soʻz borganda, navqiron avlodni yangicha dunyoqarash asosida kamol toptirishni unutmashimiz lozim. Chunki hozirgi taraqqiyot bosqichida nafaqat yoshlar, balki jamiyatimizning barcha aʼzolari orasida vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat tuygʻulari yanada mustahkamlash muhim masala hisoblanadi.

Bunday muqaddas tushunchalar odamlar tafakkuriga yurtimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan oʻzgarish va yangilanishlar bilan birgalikda singib bormoqda. Milliy gʻoya va mafkura masalasi bu jarayonda asosiy omil sanaladi.

Shuning uchun ham maʼnaviyat yoshlarning parvozini taʼminlaydigan, ularning kuchiga-kuch, gʻayratiga-gʻayrat qoʻshadigan qanot ekanini unutmagan holda, yoshlar oʻrtasida faol maʼnaviy-maʼrifiy ish olib borish, ularning Vatanga muhabbat, har bir ishga sadoqat ruhida tarbiya toptirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.



Muhtaram Prezidentimiz o`zining ko`pgina chiqishlarida hozirgi dunyo miqyosida aql-zakovat va fikr musobaqasi ketayotgan shiddatli bir davrda faqat mustaqil fikriga ega bo`lgan o`zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini chuqur anglab yetgan, yon-atrofdagi voqealarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan har tomonlama bilimli va barkamol yoshlarga o`z xalqi va Vatani shuhratini dunyoga yoyishga qodir bo`lishi haqida doimo ta`kidlaydi. Chindan ham, bugungi davrda mafkuraviy immunitetining asosiy mezon bo`lgan yuksak tafakkur va ma`naviyat har qanday yutuq va g`alabaning asosiy sharti va garoviga aylanib bormoqda. Negaki, ma`naviyatsiz odam fikran boshqalarga qaram, tobe bo`ladi. U faqat topshiriqni bajarishdan boshqa narsaga yaramaydi. Hozirgi yuqori zamonaviy texnologiyalar zamonida esa berilgan topshiriqlarni texnika vositalari ham qoyilmaqom qilib bajarishi mumkin.

Ma`lumki, imyon-e`tiqot inson ma`naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri. Chunki, biron narsaga ishonmasa, mehr qo`ymasa, insonning qalbi va ongida yuksak tuyg`u va tushunchalar tizimi vujudga kelib, kamolga yetmaydi. Modomiki, imyon-e`tiqot insoniyat ma`naviyatining o`zagi va o`z navbatida imyonli-e`tiqotli bo`lishining sharti Vatanni sevish bilan bog`liq ekan, hech shubhasiz, vatanparvarlik eng yuksak fazilatlardan biridir.

Vatanparvarlik ham milliy, ham umuminsoniy ma`naviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo`ladi. Vatanga bo`lgan munosabat ma`naviyat darajasiga ko`tarilib, inson faoliyatiga, maqsad va vazifalariga aylanishi-vatanparvarlikdir. Vatanparvarlikni harbiy soha, kasb-kor bilan chambarchas bog`liq tushuncha. Shuning uchun "Harbiy vatanparvarlik" tushunchasi muomalaga kiritildi. Vatanga sadoqat qasamyod sodiqlik ana shu harbiy aktning nihoyasi sifatida keladi va uni harbiylar ham, harbiy qasamyod-e`tiqot ramzidir. Uni keltirgan fuqaro yoki harbiy xizmatchi talab etadigan normalarga qat`iy rioya etishni mas`uliyat deb hisoblaydi. Vatanga qasamyodni buzish xoinlik, sotqinlik hisoblanadi.

Qasam shaxsni mudom sergak yashashga undaydi, vatan taqdiriga taalluqli xabar va ma`lumotlarni begona, yot, yov tomonga tarqatmaslikni burch sifatida unga yuklaydi. Bu burchni buzmaslik uchun Vatan, ota-ona oila, butun xalqi nomidan qasam ichadi va shu tariqa, o`z qalbidagi vatanparvarlikni ifoda etadi. Qasam ichish va unga amal qilish, uni buzmaslik vatanparvarlikning oliy ko`rinishidir.

Vatanga muhabbat hayotda har qaysi insonning ezgu orzu-umidlari bo`ladi. Ayniqsa, ozod-umidlari bo`ladi. Ayniqsa, ozod va obod Vatanda o`sib-ulg`ayotgan, qalbi pok his-tuyg`ular bilan to`lgan yoshlarning orzulari bir olam. Ana shu orzularning eng ulug`i ota-onaga, el-yurtga Prezidentiga beminnat xizmat qilish, ularning oldidagi farzandlik burchini sidqidildan ado etishdir. Bu orzuga erishish uchun inson bolalikdan boshlab o`z oldiga aniq maqsad qo`yib, zarur bilim, ko`nikma, hunarlarni egallashi, ham ma`naviy jihatdan sog`lom va baquvvat bo`lishi lozim.



INSON VA JAMIYAT BIRLIGI G'OYASI:

Falsafiy nuqtai nazardan, inson jamiyatidan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Shuning uchun yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash-bu ularning 'Men 'ni "Biz" bilan uyg'unlashtirish, ya'ni shaxsning o'z xalqiga, millatiga bo'lgan daxldorlik hissini kuchaytirishdir.

FIKR:Vatanparvarlik bu-"men uchun Vatan", emas , balki "men Vatan uchun" degan hayot falsafasini shakllantirishdir.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA TARIXIY XOTIRA FALSAFASI:

Har bir xalqning ma'naviy kuchi-uning tarixiy xotirasi va o'zlikni anglashida mujassam. Yosh avlod o'z tarixini , ajdodlarining fidoyiligi, mardligi va ilmiy-ma'naviy merosini chuqur bilsa, u milliy g'urur va vatan sadoqati bilan yashaydi.

FALSAFIY ASOS:"Kim o'z o'tmishini bilmasa, o'zining kelajagini qurishga haqli emas"

MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING USTUVORLIGI:

Vatanparvarlik faqat his-tuyg'u emas, balki axloqiy majburiyatdir. Bu jarayonda halollik, adolat, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi qadriyatlar yoshlar ongiga singdirilishi kerak.

FALSAFIY ASOS:Ezgulik-vatanparlikning ildizi, yovuzlik esa befarqlikning mevasi.

ERKIN FIKRLASH VA TANQIDIY TAFAKKUR:

Yoshlarni sadoqatli qilib tarbiyalash-bu ularni "so'zsiz itoatkor" emas, balki vatan manfaatini anglay oladigan ongli shaxs etib shakllantirishdir. Erkin fikrlovchi yoshlar milliy manfaatini chuqur anglaydi, uni himoya qilish uchun mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

FALSAFIY ASOS:Haqiqiy vatanparvarlik-bu ongli tanlov, emas, ko'r-ko'rona sadoqat

GLOLALLASHUV SHAROITIDA MILLIY IDENTITETNI SAQLASH FALSAFASI:

Bugungi kunda yoshlar global ma'daniyat ta'sirida o'smoqdalar.Shu bois, ularning ongida milliy qadriyatlar bilan zamonaviy tafakkur uyg'unligini ta'minlash muhim falsafiy vazifadir.

FIKR: Milliylikni yo'qotmasdan, dunyoviy tafakkurga ega bo'lish-haqiqiy vatanparvarlikning belgisi

IJTIMOY ADOLAT VA FUQAROLIK MAS'ULIYATI:

Falsafiy jihatdan, vatanparlik shunchaki shior emas, balki fuqarolik ongining ifodasidir.Adolatli jamiyatda yashayotgan yosh inson o'zini shu tizimning faol ishtirokchisi sifatida his etadi.

FIKR: Adolat yo'q joyda sadoqat so'nadi, sadoqat yo'q joyda vatanparvarlik zaiflashadi.

MILLIY G'OYA VA MA'NAVIY BIRLASHUV FALSAFASI:

Yoshlarni tarbiyalash jarayonida milliy g'oya- "Yangi O'zbekiston -yangicha tafakkur bilan" kabi tamoyillar orqali ularning ongiga umummilliy maqsad sindiriladi.Bu birlashuv g'oyasi har bir shaxsni umumiy ezgu maqsad sari yetaklaydi.





XULOSA: Yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning falsafiy omillari-bu ma`naviyat, tarixiy xotira, axloq, tafakkur erkinligi va milliy birlik g`oyalari uyg`unligidir.Bu omillar uyg`unlashganda, shaxs ongli fuqaroga, millat esa barqaror jamiyatga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi ( Xalq so`zi) 2017-yil 20-sentyabr
- 2.Mirziyoyev . Sh Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent: "O`zbekiston " NMIU 2017.B.32
3. Raxmonkulov.F.R (2024) VATANPARAVR MULKDORLARNI TARBIYALASH BUGUNGI DAVRNING DOLZARB VAZIFASI. Academic research in educational sciences 5(2) 536-543
- 4.Juraev.B.X " Vatanparvarlik " O`zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnal. 13-son. 2022-yil
- 5.Dilfuza Azizova O`zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi raisi. (ZARNEWS)

